

## MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH BO'YICHA KORREKSION – RIVOJLANTIRUVCHI ISHLAR

Lazizbek Xayitov

*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD*

**Komilov Otabek Iqboljon o'g'li**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Maktabgacha tarbiya maxsus muassasalarida olib boriladigan ishlar o'yinlardan foydalanilgan holda, ko'proq iste'molda ishlatiladigan fe'llar hisobiga lug'atni boyitish bilan boshlanadi («Kim qanday ovoz beradi», «Kim qanday ovqatlanadi» va hokazo).

Sifatlarni egallash rang, shakl, hajmi anglatuvchi so'zlardan boshlanadi. keyinchalik balandlik, qalinlik, uzunlik, kenglik, og'irlik va mazani anglatuvchi o'zlashtirish davom ettiriladi. Keyinroq otlardan yasalgan sifatlarni o'rganish ustida ishlar olib boriladi. Shuningdek, keyinchalik murakkab bo'lgan so'zlar – sifatlarni o'zlashtiriladi. (masalan, insoniy fazilatlar-anglatuvchi sifatlarni).

Maktabgacha tarbiya maxsus muassasalarida so'z ma'nolarini aniqlash ustida olib boriladigan ish, atrofda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar bilan uzviy bog'liq. Predmetlarni tasniflash (turlarga ajratish) nutqdan tashqari bo'lgan (nutqiy bo'lmagan) reja asosida (masalan, rasmlarni ikki guruhga bo'lib ajratish), shuningdek, nutqdan foydalanilgan holda olib boriladi. Masalan, ko'rsatilgan barcha predmetlarni bir nom bilan aytish. Bolalarni turli toifadagi predmetlarni o'rganishi va o'zlashtirishlariga yordam beradigan yozma ma'lumotlar va rasmlar tavsiya etiladi.

So'z ma'nosi ustida, uning aniq ma'nosidan asta-sekinlik bilan grammatik ma'nosiga o'tish va uni o'zlashtirishga alohida o'rin ajratiladi.

Aqli zaif o'quvchilarda nutqning grammatik qurilishini rivojlantirish jarayonida nutqiy nuqson strukturasi, semantik jihatdan yaqin bo'lgan shakllar differensiasiyasining qiyinchiliklarini e'tiborga olish zarur.

Normal bolalar maktabgacha bo'lgan davrda o'rganadigan ko'pgina grammatik shakllarni, aqli zaif bolalar quyi sinflarda ham o'zlashtirmay qoladilar. Grammatik shakllar ustidagi ishlar konkretlikdan obstraktlikka (mavhumlilikka), sodda bo'lgan so'zlardan murakkab so'zlarning o'tish sifatidan amalga oshiriladi.

Fe'lga oid so'zlarning o'zgarishi funksiyasining rivojlanishi, dastlab hozirgi zamonda keyinroq o'tgan zamonda (son, shaxs, o'zgarishlar) va nihoyat, zamon shakli jihatdan murakkabroq bo'lgan kelasi zamonda o'tkaziladi.

So'z yasallishini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar, aqli zaif o'quvchilarda uzoq davom etadigan, qiyin kechadigan jarayon hisoblanadi. Bu borada aqli zaif bolalar bilan asosan yordamchi maktablarda ish olib boriladi. Bu ishlarni avval ot so'z turkumiga oid so'zlarning kichraytirish, erkalash shakllarini va boshqa ot yasovchi usullarni o'rganishdan boshlash lozim. Keyinchalik otlardan sifat yasallishi va qarindosh bo'lgan so'zlarni o'rganish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Gap bo'yicha olib boriladigan quyidagi ishlar tartibi tavsiya etiladi: avvalo sodda, sodda yoyiq va nihoyat qo'shma gaplar. Mustaqil nutq ustida olib boriladigan ishlar, dastlab dialogik material, keyinroq esa – monologik nutq ustida olib boriladi.

Mustaqil nutqni rivojlantirish jarayonida asosiy e'tibor bog'lanishni bayon qilishni rejalashtirishga qaratiladi. Mustaqil nutqni grammatik jihozlash ustida ham ish olib borish zarur. Mustaqil matn ustida ish olib boriladigan ishlarga quyidagi tavsiyalar beriladi: qisqa matnni qayta so'zlash, ko'rgazmalikka tayangan holda uzun matnni qayta so'zlab berish, suyuqetli rasmlar turkumi asosida qisqa himoyalash va berilgan mavzu asosida mustaqil so'zlash. Aqli zaif bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish analiz, sintez, qiyoslash, umumlashirish va ayniqsa, ichki rejalashtirishni qayta ishlash bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak.

Mustaqil bayon qilishning har bir harakat (operasiyasi) dastlab mustaqil oddiy topshiriqlar asosida shakllanadi va asta sekin bog'lanishli matn bunyod bo'lishida bir butun jarayonga aylanadi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishning eng samarali yo'llarining mazmuni va usullarini aniqlah muhim ahamiyatga ega. Buning uchun avvalo bolalar nutqining o'ziga xosliklari, uning hosil bo'lishi va rivojlanishi hususiyatlarini hisobga olish lozim.

Umumiy va mahsus pedagogikadagi mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, me'yorida rivojlanayotgan bolalarning kamolot bosqichi davrlarini, nuqsonga ega bo'lgan tengdoshlari ham albatta bosib o'tadilar, lekin bu jarayonlar ularda kechikibroq kechadi. Bunga aqli zaif bolalarning bosh miyasining organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyatining turg'un buzilishi sabab bo'ladi.

Mahsus usullar yordamida bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarni ma'nosini tushuntiribgina qolmasdan, balki, undan o'z nutqlarida faol qo'llashga o'rgatib boriladi.

Maxsus bolalar bog'chasini ta'lim va tarbiyasi jarayonida aqli zaif bolalarni nutqini o'stirish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi.

Bu yo'nalishda olib borilgan ish ularga aqliy salohiyatning muhim usullarini o'rgatish, analiz, sintez, taqqoslash, umumlashirish, aniqlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Bunda korreksion pedagogik ishning ahamiyati muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir. Bu umumiy vazifa – "Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik" quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, savodga tayyorlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yil davomida jami 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Shulardan 36 tasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha, 36 tasi savodga tayyorlash bo'yicha bo'ladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 20-25 daqiqqa.

Og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda asosan, bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga, nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda gaplar tuzish, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, imkon qadar ravon gapirishga, mustaqil hikoya

qilishga e'tibor beriladi. Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi: bolalarni o'z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari imkon qadar mazmunan bog'langan, ma'lum izchilikda, grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarini kafolatlari to'g'risida" gi Qonun. Toshkent-2007y.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. Toshkent-2007y.
3. Ayupova.M.YU "Korreksion ishlar metodikasi" Ma'ruza matni .T-2001
4. K.M. Maxkamjonov, I.R. G'ulomov "Kichkintoylar uchun xalq harakatli o'yinlari" metodik tavsiyanoma, Toshkent 1989 y.
5. Axmedova Z.M., Ayupova M.YU., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin" Toshkent – 2013
6. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). Rinolalik bolalar ovoz va nafasini logopedik oyinlar orqali rivojlantirish. Science Promotion, 1(2), 160-163.
7. Xayitov, L. (2023). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati. Innovative developments and research in education, 2(18), 135-139.
8. Xayitov, L. (2023). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKI XUSUSIYATLARI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(18), 140-143.
9. Xayitov, L. R., & To'liqinova, O. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IZCHIL NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and researches, 1(1).
10. Xayitov, L. R., & Umarova, K. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIALOGIK NUTQINI O'YIN FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRISH. Interpretation and researches, 1(1).
11. Khayitov, L. R. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. Science Promotion, 1(1), 98-102.
12. Khayitov, L. R., & Egamberdieva, F. (2023). VOCATIONAL GUIDANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DEVELOPMENTAL DISABILITIES. Science Promotion, 1(1), 23-27.
13. Khayitov, L. R., & Abdusalomova, F. (2023). WAYS TO STUDY AND ELIMINATE THE INFLUENCE OF SPEECH DEFECTS ON THE MENTAL DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. Science Promotion, 1(1), 6-10.
14. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). RINOLALIK BOLALAR OVOZ VA NAFASINI LOGOPEDIK OYINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. Science Promotion, 1(2), 160-163.

15. Khaitov, L. (2023). METHODS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH BOAS WITH HEARING PROBLEMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 155-161.
16. Khaitov, L. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH CHILDREN WITH HEARING DEFECTS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 162-167.
17. Lazizbek, X., & Shaxlo, A. (2023, December). NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 19, pp. 78-82).
18. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
19. Xaitov, L. A. (2021, December). THE ISSUE OF SUSTENANCE AND PROFESSION IN HAKIM TERMIZI'S WORK "BAYANUL KASB"("DESCRIPTION OF THE PROFESSION"). In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 67-69).
20. Khayitov, L. R., & Turgunova, S. (2023). CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENT IN PRESCHOOL AGE SPEECH DEVELOPMENT. *Science Promotion*, 1(1), 88-92.
21. Курбаниязов, З., Бабажанов, А., Давлатов, С., Гозибеков, Ж., Хайитов, Л., Даминов, Ф., & Казаков, М. (2015). Анализ результатов хирургического лечения больных узловыми образованиями щитовидной железы. *Журнал проблемы биологии и медицины*, 1(82), 45-48.
22. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
23. Khayitov, L. R., & Komilov, O. (2023). TECHNOLOGIES FOR GROWING SPEECH OF MENTALLY RETARDED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science Promotion*, 1(1), 32-35.
24. Abdullaeva, B., Khaitov, L., & Aziza, M. (2020). Development of social pedagogical competence of future defectologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1139-1142.
25. Хайитов, Л. Р., & Уктамова, Ш. Г. (2016). Осознанный выбор школьников с ограниченными умственными возможностями, а также влияние семейной среды, социальной-психологии. *Евразийский Союз Ученых*, (6-3 (27)), 50-53.
26. Khaitov, L. (2020). Essence and structure of socio-pedagogical competence of the future logopeda teacher. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.